

**SHARQ MUTAFAKKIRLAR BOLA TARBIYASI VA HUNAR  
EGALLASHIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI**

*Sharipova Gulnur Abaevna,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Nukus shahri 48-sonli maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Maqolada sharq allomalarining bola tarbiyasi, bilim olishi, nutq go'zalligi va tarbiya beruvshi shaxsga quyiladigan talablar, kasb-hunar o'rgatish haqidagi teran fikrlari bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning «Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» nomli bandida «Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlagan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qa'tiy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish»[1] yo'nalishi belgilangan. Ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni shunday ruhda tarbiyalash xususida so'z yuritar ekanmiz, ta'lim-tarbiya jarayonini aksiologik yondashuv asosida amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqdir. Aksiologiya (yunoncha «axia» - qimmat, qadr va «logos» - ta'limot) qadriyatlar haqidagi soha. Ajdodlarimizning shaxs o'zligini anglash uchun tinmay aqliy kurash olib borganligini ko'ramiz. Umuman, Sharqning buyuk allomalari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda boshqa allomalarning o'z asarlarida, maktab va madrasalarda mudarris, ustoz-murabbiy sifatida, kasb-hunarga o'rgatishga, insonni aqliy kamolotga etkazishda o'qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyat berdilar, muallim va ustoz-murabbiyning pedagogik mahorati hamda eng qulay ta'lim usullarini amaliyotda qo'llash yo'llarini bayon etishga harakat qildilar.

Sharq mutafakkirlaridan qolgan qimmatli ma'naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilganimizda ularning inson kamolat, ma'naviyati va mehnatsevarlik xislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb hunarga o'rgatishga taalluqli ibratli, qimmatli mulohazalar olsa bo'ladi. To hozirgacha saqlanib kelayotgan qator me'moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xaliq, amaliy sa'nati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me'morchilik) arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari, bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb — hunar

o'rgatishga, yuksak iste'dod va qobiliyat soxibi bo'lishiga oid bebaho materiallar qoldirganliklarini mujassamlashtiradi.

Sharqda «Shayx-ur rais» («Olimlar raisi») unvoni bilan mashhur bo'lgan Al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinoning (980-1037) «Tadbir ul-manozil» asarida bayon etilgan o'qitish usullari hozirgi davr ta'lim tamoyillariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir: «Bola baquvvat bo'lib, so'zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlangandan so'ng u savod o'rganishga qobil bo'ladi, shundan so'ng savodga o'rgata borish mumkin. Avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan irodali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo'ladi. U sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerak». Ibn Sino o'quvchiga bilim berishda o'qituvchining pedagogik mahorati va mas'uliyatli burchi masalasiga alohida to'xtalib, o'qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi, qiziqishi, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, o'qituvchiga shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

bolalar bilan muomalada bosiq-jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;

ta'limda turli o'qitish usullari va shakllaridan foydalanish;

bolaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish; fanga qiziqтира olish;

berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;

bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o'qitishdan ko'ra jamoa, sinf tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta'kidlaydi: «O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar». Mutafakkirning fikrlarida bola maktabga borganda gina o'z yoshiga manond ilmlar o'rganib ustozlar talim-tarbiyasi ila bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolaning o'z tengdoshlari bilan qiladigan munosabatlari o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada orttirib, shaxs sifatida shakillanishiga turtki bo'ladi. Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan xolda unga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katga amaliy ish qilganligiga guvox bo'lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlargagina egadir, unga o'xshash insonlar kamdan- kam bo'ladi.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslaxatlarni berganlar, chunonchi ta'lim so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu muloxazalardan ko'rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan. Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks xolda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshoxlar ham o'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshoxlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat inom qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati odat - malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar.

Sharqning komusiy olimlaridan Davoniy bolalarning kasb-hunar egallashi to'g'risida e'tiborga sazovor fikrlar bildirgan. Muallim bolalarning qobiliyatini qaysi kasb bilan qiziqqishini juda yaxshi bilishi lozim. Agar bola ma'lum bir kasb-hunar yoki ilm bilan shug'ullansa, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va bu ilm yoki kasbni egallash uchun kerakli shart sharoitni yaratib berish lozim. Har bir kishining, deb yozadi Davoniy, hamma kasbni egallashga qobiliyati bo'lmaydi, balki muayyan odamning kasbga qobiliyati bo'ladi. Bir kasb-hunarni o'rganishga intiluvchilar butun iste'dodlarini ana shu kasbni egallashga qaratadilar, natijada o'z sevgan kasb-hunarlarini tezda va puxta o'zlashtirib oladilar. Davoniyning bu fikrlari Forobiyning quyidagi fikrlariga juda o'xshab ketadi: "Kasb-hunarni egallash va kamolotga erishishga o'z ixtiyoricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san'at axllaridir"[2].

Hadis ilmida ham "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" deydi, Imom al-Buxoriy hazratlari. Hadisda ilm olish va uni targ'ib qilish savob va farz ekanligi haqida aytilib, bunda olinadigan ibrat shuki har bir o'quvchi, talaba yoshligidan bilimga qiziqishi, ilm talab bo'lishi, yangi bilimlarga chanqoq va ko'proq o'z ustida izlanishlar olib borishi, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi haqida uqtirib o'tgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasidagi fikrlarni o'rganish, ularni amaliy hayotga tadbqiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o'rgatish jamiyatning asosiy vazifalardan biri xisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son farmoni. - T.: «Adolat», 2017. -26-b.
2. S.X.Jalilova, F.I.Haydarov, N.I.Halilova «Kasb psixologiyasi» Toshkent-2010. - 24b.

